

**PARLAMENTNING MILLIY VAKILI HISOBLANGAN
OMBUDSMANNING INSON HUQUQLARINI HIMOYALASHDAGI O'RNI.**

Urakov Djaxongir Rajabovich

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining
jinoyat huquqiy fanlar kafedrası assistenti,
mustaqil tadqiqotchi, udjahongir@gmail.com,
<https://orcid.org/0000-0003-0078-2463>*

Tursunova Yeshoda Fazliddin qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat
Universiteti yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi,
fazliddinovnayeshoda@gmail.com,
<https://orcid.org/0009-0001-4241-5875>*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan to bugungi kuniga qadar, inson huquqlarini himoya qilishda sud va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bilan bir qatorda, mamlakatda inson huquqlarini himoya qilishning suddan tashqari tizimi shakllantirilgani va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi kabi demokratik davlatlar uchun xos bo'lgan inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tizimining jamiyatlardagi o'rni va mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanib borishi, to'rtinchi hokimiyat hisoblangan ommaviy axborot vositalari ham inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash va himoya qilish sohasida o'zining mustaqil o'rnini topa boshlagani haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markaz, Inson

Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, fuqarolik jamiyati, Inson huquqlari bo'yicha Birinchi Butunjahon konferensiyasi.

Роль Омбудсмана, который считается национальным представителем Парламента, в защите прав человека

Ураков Джахонгир Ражабович

Ассистент кафедры уголовно-правовых наук Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова, независимый исследователь, udjahongir@gmail.com, <https://orcid.org/0000-0003-0078-2463>

Турсунова Ешода Фазлиддин кизи

студент 4 курса юридического факультета Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова, fazliddinovnayeshoda@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0001-4241-5875>

Аннотация: В данной статье с момента обретения Республики Узбекистан независимости и по сегодняшний день, помимо дальнейшего совершенствования деятельности судов и правоохранительных органов по защите прав человека, в республике сформирована внесудебная система защиты прав человека. страны, а также Представитель Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам человека (Омбудсмен), институт мониторинга действующего законодательства при Президенте Республики Узбекистан, Национальный центр по правам человека Республики Узбекистан и система национальных правозащитных институтов, типичных для демократических стран в обществе место и Подробно рассказывается о развитии институтов гражданского общества в стране, о том, что средства массовой информации, считающиеся четвертой властью, начали находить свое самостоятельное место в сфере обеспечения и защиты прав и свобод человека.

Ключевые слова: Права человека, Представитель по правам человека (Омбудсмен), Институт мониторинга действующего законодательства при Президенте Республики Узбекистан, Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, Всеобщая декларация прав человека, гражданское общество прежде всего. Всемирная конференция по правам человека.

The role of the Ombudsman, who is considered the national representative of the Parliament, in the protection of human rights.

Urakov Djaxongir Rajabovich

Assistant at the Department of Criminal Law Sciences of Samarkand State University named after Sharof Rashidov, independent researcher, udjahongir@gmail.com, <https://orcid.org/0000-0003-0078-2463>

Tursunova Yeshoda Fazliddin qizi

4th year student of the Faculty of Law of Samarkand State University named after Sharof Rashidov, fazliddinovnayeshoda@gmail.com,
<https://orcid.org/0009-0001-4241-5875>

Abstract: In this article, since the independence of the Republic of Uzbekistan until today, in addition to further improving the activities of courts and law enforcement bodies in the protection of human rights, an extrajudicial system for the protection of human rights has been formed in the country, and the Human Rights of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan representative (Ombudsman), the monitoring institute of current legislation under the President of the Republic of Uzbekistan, the National Center for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, and the system of national human rights institutions typical for democratic countries in the society place and It is detailed about the development of civil society institutions in the country, the fact that mass media, which is considered the fourth power, has begun to find its independent place in the field of ensuring and protecting human rights and freedoms.

Key words: Human rights, Representative on human rights (Ombudsman), Institute for monitoring of current legislation under the President of the Republic of Uzbekistan, National Center of the Republic of Uzbekistan on Human Rights, Universal Declaration of Human Rights, civil society. First World Conference on Human Rights.

« Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz»

Sh.Mirziyoyev

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, ko'p sohalarda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham demokratik huquqiy davlat qurilishining asosiy shartlaridan biri shaxsning asosiy huquq va erkinliklari himoyasini rag'batlantirish va jamiyatdagi har bir inson huquqlarining amaliy kafolatlari tizimini yaratish edi. Shu musosabat bilan o'zining tashqi va ichki siyosatida O'zbekiston Respublikasi 1993-yil BMTning Inson huquqlari bo'yicha Ikkinchi umumjahon konferensiyasida tasdiqlangan «inson huquqlari shakl shubhasiz universal xususiyatga ega, ularning himoyasi esa tegishli davlatlarning qonuniy ehtiyojidir» degan prinsipga¹ asoslanadi. Yurtimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha maqsadli ish olib borilmoqda, qonun hujjatlarining butun bir tizimi ishlab chiqilgan hamda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlar muvaffaqiyatli ishlab kelmoqda. Avvalo, 1945-yilda BMTning asosiy maqsadlari sifatida barcha insonlarning irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar, asosiy huquq va erkinliklarini rag'batlantirish va hurmatlashni e'lon qilgan holda BMT Ustavi, shuningdek 1948-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilindi, Hozirgi kunga kelib, inson huquqlari sohasida bir qator shartnomalar va xalqaro organlar tizimi tashkil etilgan hisoblanib, tadqiqotlardan birida ta'kidlab o'tilganidek, "1948 yildan so'ng qabul qilingan 90 dan ortiq milliy konstitutsiyalar o'zida deklarasiya qoidalarini aks ettiradi va mazkur qoidalar uning ta'siri ostida kiritilgan"² deb aytilgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka

¹ Inson huquqlari va sen. Ko'llanma. — Varshava: BDIPCHG'OBSE. 2000. — B. 150–152.

² Jayawic Kagata N. Hong Kong and the international protection of human Rights//Human Rights in Hong Kong, 1992. P. 160.

erishgach, qo'shilgan birinchi xalqaro huquqiy hujjat bu — Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hisoblanadi. Bu, O'zbekistonning inson huquqlarini rivojlantirish, himoya etish va kafolatlash bo'yicha xaqiqiy maqsadlarini bildiradi. Xalqaro hamjamiyat so'nggi yillarda inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ishida salmoqli yo'lni bosib o'tdi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) ning roli katta bo'lib, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) instituti 1995-yilda tashkil etilgan bo'lib, ushbu institut MDH hududida birinchilardan bo'lib O'zbekistonda ta'sis etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 24-aprelda bo'lib o'tgan sakkizinchi sessiyasida "Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Shu kunga qadar ushbu hujjat Ombudsman vazifalari va vakolatlarini kengaytirish zaruriyati nuqtai nazaridan takomillashtirilib, 2017-yilda yangi tahrirda qabul qilindi. Unga ko'ra, Vakil o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo'lmagan tarzda amalga oshiradi va u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobdor hisoblanadi. To'rtinchi hokimiyat hisoblangan ommaviy axborot vositalari ham inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash va himoya qilish maqsadida, **Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi** izchil amalga oshirilgani va 2024- yil 5-yanvar holatiga ko'ra, Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiya 85 foiz bajarilgani va o'tgan yili inson huquqlari sohasidagi **87 ta** normativ-huquqiy

hujjat loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi hamda Milliy markaz tashabbusi bilan **3 ta** qonun loyihasi, Prezidentning **2 ta** farmoni va **1 ta** qarori loyihalari tayyorlandi, bu haqida AOKda o'tkazilgan brifingda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi axborot xizmati rahbari G'ulom Mirzaev ma'lum qildi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazining 2024-yil 1-yarim yilida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan axborotiga ko'ra,

2024-yil 29-may kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi qarorgohida bo'lib o'tgan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga a'zo davlatlarning 40-sessiyasida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori 2025-2028-yillar uchun BMT Inson huquqlari qo'mitasiga a'zo bo'ldi. Shu orqali O'zbekiston vakili tarixda birinchi marta BMT Inson huquqlari qo'mitasiga saylangani.

2024-yil iyun oyida esa 2025-2027-yillar uchun BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi a'zoliciga o'tkazilgan saylovda O'zbekiston 185 mamlakat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, EKOSOSga saylandi. Mamlakatimiz o'z tarixida ilk bor ushbu tuzilmaga a'zo bo'ldi. 2024-yil iyun oyida BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida O'zbekiston va Xitoy tomonidan "Xalqaro sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot kuni"ni belgilash bo'yicha taklif qilingan rezolyutsiya bir ovozdan ma'qullandi.

Ushbu rezolyutsiyada O'zbekiston rahbariyatining umumiy xavfsizlik va farovonlikni ta'minlash uchun hamjihatlik ruhini rivojlantirish, amaliy hamkorlikka intilish, tinchlik va barqaror farovonlikka erishish yo'lida xalqaro hamjamiyat sa'y-harakatlarini safarbar etishga qaratilgan g'oyalari o'z ifodasini topganidan dalolatdir.

2024-yilning 15-noyabrida qabul qilingan O'RQ-1002-sonli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida³gi qonunining 19-moddasiga³ ko'ra yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari haqida quyidagicha mustahkamlab o'tilgan hisoblanadi.

„Ombudsman arizalar, takliflar va shikoyatlar tarzida kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqadi. Ombudsman shikoyatlarni ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda, arizalar hamda takliflarni "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda ko'rib chiqadi. Ombudsman O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining, O'zbekiston Respublikasi hududida turgan chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning, yuridik shaxslarning inson

³„O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi 1002-sonli qonuni. 2024.15.11

huquqlari va erkinliklarini buzayotgan tashkilotlarning yoki mansabdor shaxslarning harakatlari yoxud harakatsizligi ustidan bergan shikoyatlarini ko'rib chiqadi hamda o'z tekshiruvini o'tkazish huquqiga ega. Ombudsman uchinchi shaxslarning, shu jumladan nodavlat notijorat tashkilotlarining muayyan bir shaxsning yoki bir guruh shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi ustidan bergan shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun, basharti ularning bunga roziligi bo'lsa, qabul qiladi''⁴.

Qolaversa, Ombudsman faoliyati bo'yicha jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida hal etilgan murojaatlar haqidagi xabarlar, rasmiy munosabatlar, Ombudsman tomonidan ko'tarib chiqilayotgan muammoli masalalar, monitoring tashriflari, sayyor qabullar, fuqarolar qabuli va boshqa yo'nalishlardagi sa'y-harakatlarimizga oid xabarlar saytimizda va OAVda e'lon qilib borilishi ham aholining Ombudsman faoliyatidan keng xabardor bo'lish imkonini bermoqda. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakiliga fuqarolar Ombudsman va uning Kotibiyati xodimlari tomonidan muntazam ravishda haftaning besh kunida (dushanbadan jumagacha) o'tkazib kelayotgan qabullari orqali murojaat qilishmoqda. 2020- yilda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi qabul qilingani ham inson huquqlarini ta'minlash borasida qo'yilgan muhim qadamlardan biri bo'ldi. Shu borada, davlat rahbarining 2021- yil 26- iyundagi "Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori⁵ bilan qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini xalqaro huquqning inson huquqlari sohasidagi umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga muvofiqlashtirish, qiynoqqa solish holatlari to'g'risidagi murojaatlarning tezkor va xolisona ko'rib chiqilishi hamda aybdor shaxslarning muqarrar javobgarlikka tortilishi mexanizmini takomillashtirish, qiynoqqa solishdan jabrlanganlarga ijtimoiy, huquqiy, psixologik va tibbiy yordam ko'rsatilishini hamda

⁴ „O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi 1002-sonli qonuni. 2024.15.11 , 19-modda

⁵ 2021- yil 26- iyundagi "Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori

ularga yetkazilgan zararning kompensatsiya qilinishini ta'minlash, qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish faoliyatiga fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb etish kabi masalalar ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi va Ombudsman huzuridagi milliy preventiv mexanizm (MPM) faoliyati yanada takomillashtirildi. Qayd etish lozimki, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021- yil 22- fevral kuni BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida imkoniyati cheklangan shaxslarning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha Mintaqaviy kengash tuzish taklifi bildirilgan va O'zbekistonda alohida ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilayotgani ta'kidlangan edi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda nafaqat inson huquqlari, balki barcha sohani rivojlantirishda, aholining turmush farovonligini yanada oshirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, tahlil qilish, o'rganish, xalqaro standartlar va mamlakatlarning ilg'or tajribalariga tayanilgan holda amalga oshirilyabdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi kunda mintaqaviy OMBUDSMAN vakillari chekka-chekka hududlarga ham borib, sayyor qabullar tashkil etishmoqda, harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalarga monitoring tashriflarini amalga oshirishmoqda, jamoaviy va yakka tartibdagi uchrashuvlar o'tkazib kelinyapti. Jazoni ijro etish muassasalari, tergov hibsxonalari, manzil-koloniylariga ham "Ombudsman qutilari" o'rnatilgan bo'lib, ular orqali mahkum va mahbuslar to'g'ridan-to'g'ri Ombudsmanga murojaat qilishi mumkin. Chunki bu qutilarni Ombudsman vakilidan boshqa hech kim ocha olmaydi. Shu borada taklif sifatida shuni keltirib o'tish ham joizki, mahbuslar huquqlari yuzasidan mahbus va mahkumlarning murojaatlari keng tartibda o'rganilishi hamda ularning huquqlarini tamlanishi lozim deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inson huquqlari va sen. Ko'llanma. — Varshava: BDIPCHG'OBSE. 2000. — B. 150–152.

2. Jayawic Kagata N. Hong Kong and the international protection of human Rights//Human Rights in Hong Kong, 1992. P. 160.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida''gi 1002-sonli qonuni. 2024.15.11
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida''gi 1002-sonli qonuni. 2024.15.11 , 19-modda
5. 2021- yil 26- iyundagi "Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida''gi qarori